

OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH JARAYONIDA JAMOAT TARTIBI VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROK ETUVCHI SUBYEKTLARINING O'ZARO HAMKORLIGI

Nasirov Xurshid Rustamovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18304385>

Annotatsiya. Ommaviy tadbirlarni tashkil etish jarayonida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlarining o'zaro hamkorligiga qaratilgan milliy qonunchilik va normativ-huquqiy asoslari me'yorlari tahlil qilinadi. Shuningdek, jamoat tartibini saqlashdagi davlat organlarining vakolatlari va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'llaniladigan choralar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ommaviy tadbirlar, o'zaro hamkorlik, jamoat xavfsizligi, milliy qonunchilik, jamoat tartibi, davlat organlari, huquqiy asoslar.

Аннотация. В процессе организации массовых мероприятий анализируются нормы национального законодательства и нормативно-правовой базы, направленные на взаимодействие субъектов, участвующих в обеспечении общественного порядка и безопасности. Также будут рассмотрены полномочия государственных органов по охране общественного порядка и меры, принимаемые для обеспечения общественной безопасности.

Ключевые слова: массовые мероприятия, взаимодействие, общественная безопасность, национальное законодательство, общественный порядок, государственные органы, правовые основы.

Annotation. In the process of organizing mass events, the norms of the national legislative and regulatory framework aimed at the interaction of subjects participating in ensuring public order and security are analyzed. The powers of state bodies in maintaining public order and measures taken to ensure public safety will also be considered.

Keywords: public events, interaction, public safety, national legislation, public order, state bodies, legal framework.

O'zbekistonda ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida jamoat xavfsizligini ta'minlashda birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish bosqichlarida vazifa va funksiyalaridan kelib chiqqan holda tizimli boshqaruv mexanizmlarini amalga oshirish talab etiladi.

Ma'lumki, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash davlatning asosiy funksiyalaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur funktsiyani amalga oshirish maqsadida turli tashkiliy va huquqiy mexanizmlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Jumladan, respublikamizda har yili minglab siyosiy, madaniy va sport ommaviy tadbirlarini o'tkazilishi yurtimizdagi osoyishtalik va tinchlik hukmronligidan dalolat beradi.

Ommaviy tadbirlar davomida jamoat xavfsizligini ta'minlash juda dolzarb va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Chunki bu kabi tadbirlarda ko'plab odamlar to'planishi va transport vositalarining harakatlanishiga ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, xavfli vaziyatlar yoki ommaviy tartibsizliklar sodir bo'lishi ehtimoli yuqori bo'lgan holatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning va boshqa jamoatchilikni o'zaro hamkorligi alohida e'tiborni talab etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Ommaviy tadbirlar oldidan to‘liq rejalashtirish, tadbir o‘tadigan hududlarni xavfsizlik jihatdan tekshirish, xavfli omillarni oldindan aniqlash lozim. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga asosiy vazifa va majburiyatlarni yuklaydi.

Ommaviy tadbirlar paytida ko‘chalar va jamoat joylarida fuqarolar va transport vositalarining harakati cheklash, jamoat transporti yo‘nalishlarini oldindan o‘zgartirish, piyodalar uchun xavfsizlik yo‘laklarini belgilash lozim.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish jarayonida qat’iy nazorat o‘rnatishi va zarur hollarda vaziyatni barqarorlashtiruvchi choralarni ko‘rish lozim.

Videokuzatuv tizimlari, dronlar va boshqa zamonaviy texnologiyalar ommaviy tadbirlar paytida vaziyatni kuzatish, nazorat qilish va favqulodda holatlarda tezkor harakat qilishga yordam beradi.

Shu tariqa, ommaviy tadbirlar paytida jamoat xavfsizligini samarali ta‘minlash katta mas‘uliyatni talab etadi va bu jarayonda xavfsizlik xizmatlari, fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim o‘rin tutadi.

Fuqarolarning ommaviy tadbirlarda erkin qatnashishi ularning siyosiy ongi va faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda O‘zbekistonda ushbu tadbirlarni o‘tkazish jarayonida inson huquqlari buzilishining har qanday salbiy holatlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun tegishli choralar ko‘rilmoqda. Bu choralar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar, shuningdek, mamlakatimiz Konstitutsiyasi talablariga to‘liq mos keladi.

O‘zbekistonda ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonida jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha muhim qonun osti hujjatlari ham qabul qilingan. Xususan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori¹;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyundagi PQ-3786-son “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori²;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrda PQ-4075-son “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori³;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // <https://lex.uz/docs/3202965>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyundagi PQ-3786-son “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // <https://lex.uz/docs/3786903>.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrda PQ-4075-son “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // <https://lex.uz/docs/4124831>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda PF-27-son "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni⁴

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁵

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 360-son "Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash bo'yicha talablarni kuchaytirish to'g'risida" qarori⁶;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-oktabrdagi 530-son "Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori⁷ni keltirib o'tish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori⁸ jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Qarorning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ommaviy tadbirlar vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlash, ommaviy tartibsizliklarning oldini olish belgilangan.

O'tgan davr mobaynida poytaxtda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining yaqin hamkorligi asosida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish, huquq-tartibotni va fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida o'rnatilgan mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda jamoatchilik tuzilmalarining kuch va vositalarini muvofiqlashtirgan holda safarbar qilish, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ularning mas'uliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrda PQ-4075-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori⁹ qabul qilindi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda PF-27-son "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni // <https://lex.uz/acts/5749291>.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/2438871>.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 360-son "Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash bo'yicha talablarni kuchaytirish to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/docs/6987380>.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-oktyabrda 530-son "Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori // <https://lex.uz/ru/docs/6629448>.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // <https://lex.uz/docs/3202965>.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrda PQ-4075-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni¹⁰ ga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmon bilan 2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan bo‘lib, Strategiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimlashtirish hamda mavjud huquqiy bo‘shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish, jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga jalb qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birgalikdagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish, shuningdek, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish bilan bog‘liq jamoat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy asoslarini rivojlantirish hamda Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan jamoat tartibini saqlash bo‘yicha faoliyat olib borishning batafsil va aniq huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq jamoat xavfsizligini ta‘minlashning tashkiliy asoslarini rivojlantirish”¹¹ belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2022 – 2025-yillarga mo‘ljallangan jamoat xavfsizligini ta‘minlash strategiyasi davlatning huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan. Strategiyada jamoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish, ommaviy tadbirlar o‘tkazish qoidalarini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Biroq, vazirlik va idoralar o‘rtasidagi hamkorlik algoritmini samarali ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha tahlillar talab qilinadi. Shuningdek, xavfsizlikni kuchaytirish bilan bir vaqtda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga e‘tibor qaratish muhim.

samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // <https://lex.uz/docs/4124831>.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni // lex.uz.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoniga 2-Ilova “2022 - 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi” // <https://lex.uz/acts/5749291>

Shu o'rinda ommaviy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha yana bir muhim hujjat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorini tahlil qilamiz. Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish tartibini belgilaydi hamda ular ishtirokchilari, ommaviy tadbirlarni o'tkazish obyektlari ma'muriyatlarining, ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalari, shuningdek, davlat boshqa organlarining ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha o'zaro munosabatlari, majburiyatlari va huquqlarini tartibga soladi.

Mamlakatimizda ushbu qaror ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq masalalarni kompleks tartibga soladi. Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga ommaviy tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi shartnomaning namunaviy shaklini ishlab chiqish va tasdiqlash, ommaviy tadbirlar tashkilotchilari tomonidan ommaviy tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash to'g'risida ichki ishlar organlari bilan majburiy tartibda shartnomalar tuzilishi yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatish, shuningdek ularning tegishli ruxsatnomalar olmasdan o'tkazilishi holatlariga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rish hamda vazirliklar va idoralarning ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish davomida xavfsizlikni ta'minlashga jalb qilinadigan bo'linmalari xatti-harakatlari muvofiqlashtirilishini ta'minlash vazifasi belgilangan.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish uchun ruxsatnoma olish talab qilinadi. Bu ruxsatnomalarni olish uchun tegishli davlat organlariga murojaat qilinishi kerak bo'lib, ular O'zbekistonning turli davlat va hududiy boshqarmalari tomonidan beriladi. Shuningdek, ommaviy tadbirlar uchun ruxsatnoma berish jarayonida jamoat xavfsizligi, yong'in xavfsizligi kabi omillar inobatga olinadi va tegishli idoralar bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Bu Qoidalar shuningdek, ommaviy tadbirlarni o'tkazish joylarini texnik va xavfsizlik jihatdan tekshirishni, ularning qurilish konstruksiyalarining barqarorligini va boshqa muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlanganligini ta'minlashni talab qiladi. Tadbirlarni o'tkazish joylarini muntazam ravishda monitoring qilish va davlat organlari tomonidan ularning xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rilishi kerak.

O'zbekistonda yangi texnologiyalar va xavfsizlik choralari joriy etish, ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish jarayonlarini ancha yaxshilashga yordam beradi. Bu borada quyidagi takliflarni ko'rib chiqish mumkin:

- raqamli texnologiyalarni qo'llash; voqealarni boshqarish tizimlari;
- mobil ilovalar va SMS xabarlari.
- videokuzatuv va dronlarni samarali qo'llash.

Bu takliflarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonlari ancha yaxshilanishi va xalqaro standartlarga mos kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 360-son "Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash bo'yicha talablarni kuchaytirish to'g'risida" qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-oktabrdagi 530-son "Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi PQ-4075-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyundagi PQ-3786-son "Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.